



## AT “ALOQABANK” FAOLIYATIDA INNOVATSION BANK XIZMATLARI SAMARADORLIGINI BELGILOVCHI MOLIYAVIY KREDIT MEXANIZMI

**O.A. Berdiboyev**

*mustaqil tadqiqotchi, Toshkent axborot  
texnologiyalari universiteti, Toshkent*

**Annotatsiya**

Ushbu maqolada O‘zbekiston bank tizimidagi so‘nggi o‘zgarishlar, raqobat muhiti va zamonaviy texnologiyalarning bank mahsulotlari hamda xizmatlarining rivojlanishiga ta’siri yoritilgan. Banklararo raqobatning kuchayishi kredit va depozit shartlarini mijozlar uchun yanada qulayroq qilishga undayotganligi ta’kidlanadi. Tijorat banklarining kredit portfelini sifat jihatidan oshirish bo‘yicha olib borilayotgan chora-tadbirlar, xususan, ehtimoliy yo‘qotishlarni qoplash uchun zaxiralar shakllantirish mezonlari tahsil qilinadi.

**Kalit so‘zlar:** AT “Aloqabank”, tijorat banklari, buxgalteriya amaliyotlari, korporativ kartalar, elektron tijorat.

**Аннотация.** В статье рассматриваются последние изменения в банковской системе Узбекистана, конкурентная среда и влияние современных технологий на развитие банковских продуктов и услуг. Отмечается, что возросшая конкуренция между банками подталкивает их к созданию более выгодных для клиентов условий кредитования и депозитов. Будут проанализированы меры, принимаемые для повышения качества кредитных портфелей коммерческих банков, в частности критерии формирования резервов на покрытие возможных убытков.

**Ключевые слова:** АТ «Алокабанк», коммерческие банки, бухгалтерский учет, корпоративные карты, электронная коммерция.

Mamlakatimiz bank tizimida so‘nggi yillarda raqobat muhitining ijobiy tomonga o‘zgarib borayotganligi banklarning moliyaviy barqarorligini oshirishga, bank mahsulotlari soni va sifatini yanada yaxshilanishida muhim rol o‘ynamoqda.

Zamonaviy texnologiyalarning rivojlanishi banklar va bank xizmatidan foydalanuvchilar o‘rtasidagi masofani sezilarli darajada kamaytirishi, banklararo raqobatni kuchaytirishi va shu sababli bank mahsulotlarining miqdoriy va sifat jihatidan rivojlanishiga hissa qo‘shib kelmoqda.

Banklar o‘rtasidagi raqobat darajasining oshib borayotganligi banklar tomonidan mijozlarni jalb qilish maqsadida kreditlar, depozitlar va boshqa moliyaviy mahsulotlar bo‘yicha yanada qulay shartlarni taklif qilish zaruriyatini yuzaga keltirmoqda. Bu o‘z navbatida, bank sohasida xizmat ko‘rsatish sifati va


innovatsiyalarning yaxshilanishiga, mavjud resurslardan yanada samarali foydalanishiga, o‘z xarajatlarini optimallashtirishga, bank biznesi samaradorligini oshirishga xizmat qiladi.

Jarkovskaya E.P.fikricha “Mijozlarga kredit berishning eng maqbul variantini taklif qilish uchun bank tashkiloti qarz oluvchidan uning xizmatiga o‘tishni talab qiladigan holatlar tez-tez uchraydi. Shuning uchun kredit olish uchun bankingizga murojaat qilish eng yaxshi taklifga aylanadi.

F. Xolmamatovning fikriga ko‘ra, tijorat banklari kredit portfelining sifatini oshirish uchun kreditlar bo‘yicha ehtimoliy yo‘qotishlarni qoplash uchun zaxiralar shakllantirish metodikasini takomillashtirish maqsadida kreditlarning sifatini real baholash va ularga zaxira tashkil etish bo‘yicha quyidagi mezonlar taklif etilgan: substandart kreditlar bo‘yicha 1 foizdan 10 foizgacha; qoniqarsiz kreditlar bo‘yicha 11 foizdan 25 foizgacha; shubhali kreditlar bo‘yicha 26 foizdan 50 foizgacha; umidsiz kreditlar bo‘yicha 100 foizgacha.

### 1- rasm.


#### Tijorat banklarining kredit to‘g‘risida 2024- 2025 yil 1-yanvar holati ma’lumot



Bugungi kunda tadbirkorlik subyektlarini tashqi iqtisodiy faoliyatining samaradorligi nafaqat ularning ichki moliyaviy imkoniyatlari va samaradorligiga, balki ular faoliyatini moliyalashtirish bilan shug‘ullanuvchi moliya-kredit muassasalarining qanchalik taraqqiy etganligiga ham bog‘liq.

Har qanday mamlakat iqtisodiyotining tayanadigan asosiy ustunlaridan biri bo‘lib moliyaviy jihatdan mustahkam va barqaror faoliyat ko‘rsatuvchi bank tizimi hisoblanadi. Shuning uchun mustaqil davlatning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish darajasi va kelajakdagи taraqqiyoti avvalo mazkur mamlakatda barpo etilgan va muntazam ravishda takomillashtirilib boriladigan bank tizimining faoliyatiga bog‘liq.

Sh. Abdullayevning xulosasiga ko‘ra, kredit portfelini resurslarning manbalari bo‘yicha deversifikatsiyalash natijalariga ko‘ra, ba’zi tijorat banklarining kredit portfelida markazlashgan kreditlar salmog‘ining yuqoriligini hisobga olish lozim va shu kreditlar bo‘yicha banklarga yengilliklar berish, ba’zi hollarda ulardan olingan daromadni soliqdan ozod qilish kabi choralarini ko‘rish maqsadga muvofiq bo‘lar edi.

**2- rasm.****AT “Aloqabank” ning kredit to‘g‘risida ma’lumot**

2025-yilda bankning mavjud tarkibiy tuzilmalari hamda kompleks xizmat ko‘rsatish markazlari faoliyatini yanada samarali tashkil qilish orqali bank tomonidan xizmat ko‘rsatilayotgan korxona va tashkilotlarning istiqbolli investitsiya loyihalarini moliyalashtirishni kengaytirish ko‘zda utilgan Bankning o‘z mablag‘lari hamda jalb qilingan mablag‘lar hisobiga xo‘jalik yurituvchi sub’ektlarga 2025-yil mobaynida 6,8 trln. so‘m miqdorida kreditlar ajratilishini ta’minlab, yuridik shaxslar va yakka tartibdagi tadbirkorlarga ajratilgan kreditlar qoldig‘ini 2025-yil yakuniga qadar 11,5 trln. so‘mga yetkazish mo‘ljallangan.

2025-yilda biznes-mijozlarga modulli kreditlar ajratish mexanizmlari soddalashtiriladi hamda kredit mahsulotlari takomillashtirib boriladi.

Shu bilan birga, onlayn modulli kreditlarni ajratish yo‘lga qo‘yiladi. Xususan, Bankning «Aloqa Business» mobil ilovasi orqali, barcha turdagи kredit risklarini minimallashtirgan holda, yuridik shaxslarga mo‘ljallangan modulli kreditlar («Onlayn mikrokredit», «Onlayn avtokredit», «Onlayn aylanma mablag‘») amaliyotga joriy qilinadi.

AT “Aloqabank” tomonidan korporativ mijozlarga quyidagi yo‘nalishlarda nokredit mahsulotlari taqdim qilinmoqda:

- buxgalteriya amaliyotlari;
- depozit jalb qilish (“Klassik”, “Best invest”, “Ishonch”);
- valyuta amaliyotlari (Svop, Spot, konvertatsiya, konversiya va boshqalar);
- korporativ kartalar bilan amaliyotlar;
- elektron tijorat yo‘nalishi.

Bankning chakana kreditlash yo‘nalishida 100 mingdan ortiq mijozlarga kredit xizmatlari ko‘rsatilmoqda va Bank mijozlari onlayn kreditlardan keng foydalanib kelmoqdalar.

Bugungi kunda, jismoniy shaxslarga quyidagi turdagи chakana kreditlar taklif qilinmoqda:

- Avtotransport vositasi sotib olish uchun avtokreditlar;
- Uy-joy sotib olish uchun ipoteka kreditlari;

- Mikroqarzlar, shu jumladan onlayn mikroqarz;
- Ta’lim kreditlari va boshqa kreditlar.

Jismoniy shaxslarni kreditlashni rivojlantirishda mijoz bilan uzoq muddatli hamkorlikka yo‘naltirilgan siyosatga tayanib, quyidagi yo‘nalishlarda ish olib boriladi:

- jismoniy shaxslarning kreditga layoqatliliginini o‘rganishda bank avtomatlashtirilgan skoring tizimini muntazam ravishda takomillashtirib borish, masofadan xizmat ko‘rsatish tizimini takomillashtirish, xizmatlar sifatini yaxshilash hamda mijozlarga qo‘srimcha qulayliklar yaratish orqali qisqa muddatli kreditlar ajratish ko‘lami va samaradorligini bosqichmabosqich oshirib borish;
- kreditlash jarayonida kredit buyurtmanomalarini onlayn tarzda qabul qilish hamda an’anaviy kreditlash tizimidan onlayn kreditlash tizimiga o‘tish;
- aholining talab va ehtiyojlaridan hamda bozor konyunkturasidan kelib chiqib, doimiy ravishda yangi kredit mahsulotlarini ishlab chiqish va amaliyotga joriy qilib borish;
- kredit kartalari orqali revolver kreditlar ajratishni joriy qilish.

Jismoniy shaxslarni kreditlash amaliyotlarini rivojlantirish natijasida jismoniy shaxslarga yangi va qulay kredit turlarini joriy qilib, 2024-yil yakuniga qadar chakana kredit portfelini 4 070,0 mlrd. so‘mga, 2025-yil yakunida 6 000,0 mlrd. so‘mga yetkazish rejalashtirildi.

#### **FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI:**

1. Jarkovskaya E.P. “**Mijozlarga kredit berishning eng maqbul variantlari**” – moliya va bank xizmatlari bo‘yicha ilmiy maqolalar to‘plami, 2023.
2. Xolmamatov F. “**Tijorat banklarining kredit portfeli sifatini oshirish strategiyalari**” – O‘zbekiston bank-moliya instituti, 2024.
3. Abdullayeva Sh. “**Bank tizimida kredit portfelining diversifikatsiyasi va soliq imtiyozlari**” – Moliya fanlari akademiyasi, 2024.
4. AT “Aloqabank” rasmiy veb-sayti – “**Aloqabank 2025-yil kredit strategiyalari va moliyaviy ko‘rsatkichlari**”.
5. O‘zbekiston Respublikasi Markaziy banki – “**O‘zbekiston bank tizimining rivojlanish tendensiyalari**”, 2024-yil tahliliy hisobot.
6. Xalqaro valyuta jamg‘armasi (IMF) – “**Mamlakat bank tizimlarida raqobat va barqarorlik**”, 2023-yil tadqiqot hisoboti.
7. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti qarorlari va farmonlari – “**Bank-moliya tizimini rivojlantirish strategiyasi**”, 2023-2025 yillar uchun normativ hujjatlar to‘plami.